

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida savodxonlik darajasini oshirish

***Ro'zmatova Mahliyo Baxrom qizi-Urganch davlat
pedagogika instituti, Ta'lim va tarbiya
nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta'lim)
mutaxassisligi 1-bosqich magistranti***

Mazkur maqolada, mamalakatimizda hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlar va sohaga qaratilgan e'tibor, ta'lim-tarbiyani zamonaviy uslubda olib borish va maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining savodxonlik darajasini oshirish uchun samarali vositalar sanab o'tiladi. Shuningdek turli xil matematik o'yinlarga namunalar keltiriladi hamda ushbu o'yinlar orqali savodxonlik darajasini oshirish usullari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim tashkiloti, matematik o'yinlar, o'yinli texnologiyalar, tarbiyachi-pedagog, tarbiyalanuvchilar, savodxonlik, islohot, ta'lim, tarbiya, bilim, malaka, ko'nikma.

Abstract. *In this article, the reforms that are currently being carried out in the preschool education system in our country and the focus on the field, effective means for conducting education in a modern way and increasing the literacy level of the students of the preschool education organization are listed. Also, examples of various mathematical games are given and methods of increasing the level of literacy through these games are analyzed.*

Key words: *Pre-school educational organization, mathematical games, game technologies, educator-pedagogue, students, literacy, reform, education, education, knowledge, skill, qualification.*

Аннотация. *В данной статье рассматриваются реформы, проводимые в настоящее время в системе дошкольного образования в нашей стране, и акцентирование внимания на данной сфере, эффективных средствах проведения обучения на современном уровне и повышении уровня*

грамотности воспитанников организации дошкольного образования. перечислены. Также приводятся примеры различных математических игр и анализируются методы повышения уровня грамотности посредством этих игр.

Ключевые слова: *Дошкольная образовательная организация, математические игры, игровые технологии, воспитатель-педагог, учащиеся, грамотность, реформа, воспитание, воспитание, знание, умение, квалификация.*

Kirish

O‘tgan davr mobaynida mamlakatimizda o‘tib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta‘lim-tarbiya jarayoniga samarali ta‘lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta‘limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirildi.

Shuningdek, maktabgacha ta‘lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasalari sonini yanada oshirish va ular ko‘rsatadigan xizmatlar turlarini kengaytirish uchun mustahkam poydevor bo‘ldi.

Shu bilan birga, olib borilgan tahlil, bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan qamrovini ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim muassasalarini zamonaviy o‘quv-metodik materiallar va badiiy adabiyotlar bilan to‘ldirish, sohaga malakali pedagog va boshqaruv kadrlarini jalb qilish masalalarini hal etish zarurligini ko‘rsatmoqda.[1]

Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, bolalarning sifatli maktabgacha ta‘limdan teng foydalanishini ta‘minlash, maktabgacha ta‘lim xizmatlarining nodavlat sektorini rivojlantirish maqsadida, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 30-sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3955-son qaroriga muvofiq:

1. Quyidagilar:

a) O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi (keyingi o‘rinlarda-Konsepsiya) 1-ilovaga muvofiq, quyidagilarni nazarda tutgan holda:

maktabgacha ta’lim sohasidagi normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish;

bolalarning sifatli maktabgacha ta’lim bilan qamrovini oshirish, undan teng foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash hamda mazkur sohada davlat-xususiy sherikligini rivojlantirish;

maktabgacha ta’lim tizimiga innovatsiyalarni, ilg‘or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; kabi ishlar amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Bu kabi rejali ishlar, qaror farmonlarning qabul qilinishi ham bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimiga qaratilayotgan e’tibordan dalolatdir.[3]

Shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va Maktab ta’limi vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarorga muvofiq bu sohada yangi tizim yaratilganini kuzatishimiz mumkin. Quyida biz hozir maktabgacha ta’lim tizmi bo‘yicha ko‘rib chiqamiz.

- Yangi tashkil qilingan vazirlik oldiga maktabgacha ta’lim sohasida yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat va nodavlat tarmog‘ini kengaytirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta’minlash, maktabgacha ta’lim tashkilotlariga bolalarni qamrab olishni keskin oshirish, ta’lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta’lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali bolalarni intellektual, ma’naviy-estetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash vazifalari qo‘yilganini kuzatishimiz mumkin.

Yuqorida sanab o'tgan sifatlarga ega shaxslarni tarbiyalash uchun har bir maktabgacha ta'lim tashkilotida yetarlicha metodik qo'llanma va vositalar bo'lishi darkor.

Xo'sh, Metodik ko'mak qanchalik zarur? Buni hozir ko'rib chiqamiz.

Har qanday ta'limning asosi-metodika, jumladan, maktabgacha ta'limniki ham. Maktabgacha ta'limni sifat bosqichiga ko'tarishda yangi ta'lim metodlari, innovatsion texnologiyalarning ahamiyati kattaligi bizga ma'lum. Sababi MTTning moddiy-texnik bazasi yuqori bo'lsa-yu, tarbiyachi bola bilan ishlamasa, unga har kuni yangi ma'lumotlarni o'rgatmasa, hamma qilingan harakatlar natijasi nolga tenglashib qoladi. Sohadagi mutaxassislar mahoratini oshirish, ularga zaruriy metodik ko'mak berish maqsadida Maktabgacha ta'lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti tashkil etildi. Bu ishni qilinishidan maqsad yetarli metodik vositalardan unumli foydalanish ko'nikmasini tarbiyachi-pedagoglarda shakllantirishdir.

Maqola davomida Maktabgacha ta'limni tashkil etish, uni tashkil etish uchun zarur metodik vositalarni ko'rib chiqdik, endi esa tarbiyalanuvchilarning savodxonligini o'rganamiz. O'z nomidan ham ko'rinib turibdiki savodxonlik bu bolalarning o'rgangan, shakllantirgan bilim, malaka, ko'nikmalarining majmuyidir. Savodxonlikning asosini bilim tashkil qiladi, Bilim esa faoliyat-mashg'ulotning mevasidir. Bu maqola orqali esa biz bolalarning savodxonlik darajasini matematik o'yinli texnologiyalar orqali shakllantirilishini ko'rib chiqamiz.

Shuningdek, bugungi kunda Maktabga tayyorlov guruhleri tarbiyalanuvchilarida matematik o'yinlar orqali savodxonlik darajasini oshirish usullari bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada zamonaviy didaktik ta'minot vositasida Maktabga tayyorlov guruhleri tarbiyalanuvchilarida matematik o'yinlar orqali savodxonlik darajasini oshirish usullarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari o'rganib chiqildi. Muammoni o'rganishda xorijiy oliy ta'lim muassasalarida maktabgacha ta'lim

yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida qo'llanilayotgan matematik o'yinlar va o'yinli texnologiyalar, ularning ta'limiy va tarbiyaviy ahamiyati tushunchalari, ularni qo'llash usullari, yondashuvlari, me'zonlari va bosqichlari tayanch konsepsiya vazifasini bajardi

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jaroyini albatta o'yin orqali amalga oshiriladi va bu ta'limning samarali vositasi ekanligi tan olingan. Sababi o'yin-tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biridir.[3] Shu bilan birga Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni o'yin orqali kompetensiyalarini rivojlantirish ko'p qirrali jarayon hisoblanib, o'yin faoliyati oddiy harakatlaridan tortib, psixik jarayonlari elementlaridan eng murakkabigacha ta'sir etadi. Bolalar o'yinlarda ichki kechinmalarini aks ettirishadi va bu esa ularni o'yinda mustaqil bo'lishga o'rgatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'zaro tengdoshlari bilan muloqoti asosan o'yin jarayonida yuzaga keladi. Birga o'ynab bolalar bir-birlarini hurmat qilishini, boshqa bolalarni harakati va xoxishlarini inobatga olishni, o'yin imkoniyatlaridan kelib chiqib birga rejalar tuzishini o'rganishadi. O'yin kompetensiyasini rivojlantirish orqali erta bolalik davrida kattalar bolani atrofdagi haqiqat bilan tanishtirishadi, o'zaro aloqa jarayonida unga harakatlar, narsalar va odamlar bilan munosabatlar to'g'risida ma'lum tajriba va bilimlar berishadi. Maktabgacha yoshdagi bola narsalarga teginish, sinash, boshdan kechirish orqali tajribalarga ega bo'ladi.[4]

O'yinlarning foydali jihatlarini ko'rib chiqdik, Matematik o'yinlarga to'xtladigan bo'lsak, ushbu o'yin turi bilan doimo ermaklar birga keladi.

Matematik o'yinlar va ermaklar- matematik tahlil, topqirlik, o'tkir zehnlilik talab qiladigan topshiriq yoki boshqotirmalar. Predmetli (Rubik kubchasi), yozib-chizib (qalamni qog'ozdan uzmay shakl chizish) yoki og'zaki o'ynaladigan turlari mavjud. Faqat bir taraf qatnashadigan topshiriqlarni matematik ermaklar, ikki yoki undan ortiq taraf qatnashadiganlarni esa matematik o'yinlar deb yuritish maqsadga muvofiqdir.

Matematik o'yinlar va ermaklar bolalarning aqliy qobiliyatlarini o'stirish, kattalarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, o'quv qurollari sifatida

ahamiyatga ega. Namunalari qadim zamonlardan ma'lum. Xalq orasida tarqalgan toshchalar, soqqalar bilan o'ynalgan sodda o'yinlarni takomillashtirish natijasida shaxmat, shashka, nard, domino va boshqa paydo bo'lgani tarixdan bizga ma'lum. Tangram (Xitoy), go (Yaponiya) kabi o'yin va ermaklar ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, Amir Temur saroyida shaxmatning bir necha turi o'ynalgani ma'lum.

XIX asrdan Matematik o'yinlar va ermaklar ixtiro qilina boshlagan. Ayniqsa, "15" o'yini deb ataladigan o'yin mashhur bo'lgan. Bu o'yinda 4x4 o'lchamli katakdagi raqamlangan 15 ta soqqani 1 ta bo'sh katakka surish yo'li bilan batartib terib chiqish talab etiladi. XX asrning so'nggi choragida vengriyalik ixtirochi E. Rubikning 6 rangli kubchasi keng tarqaldi. Unda kubchanning turli yoqlarini markazi atrofida aylantirib, hamma yog'i bir xil rangda bo'ladigan holatga keltirish talab etiladi. E. Rubik yana 10 dan ortiq boshqotirma ixtiro qilgan. Bugungi kunda Matematik o'yinlar va ermaklar ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biriga aylanib, boshqotirmalar bo'yicha jahon chempionatlari o'tkazila boshlandi.

Biz bilmizki, matematik o'yinlar va ermaklar matematika vositasida tahlil qilinadi. Bunda qo'yilgan maqsadga olib boradigan yurishlarni aniqlash uchun strategiya tushunchasi kiritiladi. Strategiya-o'yinda uchrashi mumkin bo'lgan har bir vaziyat aniq bir yurishni ko'rsatuvchi qoida(algoritm)dir. Masalan, "nim" o'yinida xontaxta ustidagi gugurt cho'plaridan 2 o'yinchi navbat bilan oladi. Har bir yurishda kamida 1 ta, kupi bilan 5 ta cho'p olish mumkin. Agar dastlabki cho'plar soni 6 ga bo'linmasa, 1-o'yinchi har doim yuta oladi. Buning uchun u har bir yurishda shuncha miqdorda cho'p olishi kerakki, natijada xontaxta ustida 6 ga karrali miqdorda cho'plar qolsin. Rubik kubchasi, Xanoy minorasi kabi o'yinlar gruppalar nazariyasi, rekursiya kabi vositalar orqali chuqur matematik tahlil talab etishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak maktabga tayyorlov guruhleri tarbiyalanuvchilarida matematik o'yinlar orqali savodxonlik darajasini oshirish usullarini samarali tashkil qilish uchun vosita sifatida o'yinni tanladik maqola davomida. Biz o'rganib chiqqanimizdek, o'yin orqali o'quvchining ma'lum bir

faoliyatga bo'lgan qiziqishi ortadi. Kommunikativ-muloqot madaniyatini egallashga ko'maklashadi.

Shuningdek, yana ham e'tiborli tamoni shundaki maktabgacha yoshdagi bolalar uchun o'yinli texnologiyalar mehnat va shu kabi boshqa tarbiyasi va ta'limi vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

- 1.O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi
2. "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son qarori
3. Sh. Sodiqova "Maktabgacha Pedagogika" Toshkent.: Taffakkur bo'stoni 2013-yil 65-bet
4. Turapova R B. "O'yin faoliyati haqida olimlarning ilmiy-nazariy qarashlari" 7-b